

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOV RAMZ RIZOQULOVICH

**ZAMONAVIY TARG‘IBOT SISTEMALARI:
IJTIMOIY FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Rustamov Ramz Rizoqulovich

Zamonaviy targ‘ibot sistemalari: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....3

Рустамов Рамз Ризокулович

Современные системы пропаганды: социально-философский анализ33

Rustamov Ramz Rizokulovich

Modern propaganda systems: socio-philosophical analysis67

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of works published.....72

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

RUSTAMOV RAMZ RIZOQULOVICH

**ZAMONAVIY TARG‘IBOT SISTEMALARI:
IJTIMOIY FALSAFIY TAHLIL**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Fal221 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashining veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Choriev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xajieva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Nazarov Qiyom Normerzayevich
falsafa fanlari doktori, professor

Turdiyev Bexruz Sobirovich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil " 8 " avgust soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (698 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)


Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil " 26 " iyul kuni tarqatildi.

(2025 yil " 26 " iyul dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi.)



 **Namozov B.B.**
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

 **Sharipov A.Z.**
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

 **Safarova N.O.**
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida targ'ibot nafaqat ijtimoiy, siyosiy balki, iqtisodiy, madaniy jarayonlarni o'zgartirishga va yo'nalishlarini belgilashga, jamoatchilik fikrini shakllantirishga qodir bo'lgan mexanizmga aylanib bormoqda. Undan o'z maqsadlarida foydalanishni ixtiyor qilgan subyektlar ko'paygani, qo'llash uslubiyoti yuksalgani, raqamli texnologiyalar taraqqiy topgani sayin uning imkoniyatlari ham tobora takomil topayotgan vaziyatda zamonaviy targ'ibot sistemalarini hamda davlat va nodavlat tashkilotlari uchun samarali targ'ibot strategiyalarini ishlab chiqish talab etilmoqda. Shu sababli konstruktiv targ'ibotning tafakkurga ta'sirini, zamonaviy jamiyat sharoitida tanqidiy tafakkurni yuksaltirish, jamoatchilik fikrini yanada sog'lomlashtirishga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani, bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida targ'ibotning turli ko'rinishlari, uning oqibatlarini bilan bog'liq masalalar, raqamli media, PR va media marketing vositalarining jamiyat ongiga ta'siri, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishdagi o'rnini tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy mafkura va ideologik targ'ibot tizimlari asosida axborot siyosatini shakllantirish, madaniy-ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy texnologiyalar orqali targ'ib qilish, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, targ'ibot strategiyalarining ijtimoiy, axloqiy, psixologik aspektlari, axborot jamiyati sharoitida kishilar ongini destruktiv targ'ibotdan himoya qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan zamonaviy targ'ibot sistemalari bilan bog'liq mazkur masalalarni O'zbekiston kontekstida tadqiq qilish, ijtimoiy institutlarning axborot xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni mustahkamlashga doir nazariy-metodologik yondashuvlarni tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviy yangilanish davlat siyosatining tarkibiy qismiga aylantirilib, yoshlarda ma'naviy immunitetni shakllantirish, ezgu g'oyalarni targ'ib qilish, ma'naviy ta'lim-tarbiyaning izchil amalga oshirish, aholining ma'naviy-ma'rifiy savodxonligini yangi bosqichga ko'tarish, bu boradagi samarali faoliyat mexanizmini yaratishga oid islohotlar olib borilmoqda. "Targ'ibotning ilmiy asoslangan zamonaviy texnologiyalari va yangi shakllarini, tahdidlarga qarshi samarali kurash usullarini ishlab chiqadigan vaqt keldi, deb hisoblayman. Takror aytaman: ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi bo'lmaydi. ... bugungi kunga kelib ma'naviy sohadagi voqelik va jarayonlarni huquqiy tartibga solish ishlarini yangi bosqichga ko'tarish va bunda zamon talablarini, Yangi O'zbekistonning mustahkam poydevorini qo'yish ehtiyojlarini hisobga olish zarurati yetilgan"¹. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy targ'ibotning kishilarning faoliyati mazmunini o'zgartirish xususiyatlarini hamda ma'naviyatni yemirishga yo'naltirilgan targ'ibotning xavflarini bartaraf etish, kishilar ongi va foliyatini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofazalash yo'llarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021. – B.271-272.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 4 maydagi PF-5430-son “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining ro‘lini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-iyuldagi PF-6255-son “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi².

Zamonaviy targ‘ibot sistemalarining texnologik, siyosiy, ijtimoiy va falsafiy qirrali hamda uni faqat mafkuraviy vosita emas, balki raqamli boshqaruv va ongni shakllantirish texnologiyasi sifatida ham faol tadqiq etish, uning ijtimoiy ongga ta’siri, axborot texnologiyalari bilan aloqasi, va falsafiy asoslari bo‘yicha tahliliy tadqiqotlar jahonning yetakchi universitetlari va ilmiy markazlari, jumladan, Harvard universiteti, Stanford universiteti, Princeton universiteti, Columbia universiteti, Californiya universiteti, Yale universiteti, Carnegie Mellon universiteti, Texas universiteti (AQSH), Beloruss davlat universiteti (Belorussiya), Oxford universiteti, Cambridge universiteti, London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi (Buyuk Britaniya), Madridning Komplutense universiteti (Ispaniya), Tartuensis universiteti (Estoniya), Respublika Ma’naviyat va markazi huzuridagi Ijtimoiyma’naviy tadqiqotlar instituti, Qarshi davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti, O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Zamonaviy targ‘ibot sistemalariga oid ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy jamiyatdagi kommunikatsiya, ijtimoiy fikr, g‘oyaviy boshqaruv va axborot siyosati

² <https://journalism.harvard.edu>, <https://politicalscience.stanford.edu>, <https://history.princeton.edu>,
<https://journalism.columbia.edu>, <https://psychology.berkeley.edu>, <https://psychology.yale.edu>,
<https://www.cmu.edu>, <https://www.utexas.edu>, <https://www.lib.bsu.by>, <https://www.oii.ox.ac.uk>, <https://www.polis.cam.ac.uk>,
<https://www.lse.ac.uk>, <https://www.his-online.de>, <https://www.uz.undp.org> va boshqa manbalap asosida tayyorlangan.

masalalari falsafiy va institutsional yondashuvlar orqali tahlil etilib, quyidagi natijalarga erishilgan: axborot jamiyatida kommunikatsiya kuchi yangi ijtimoiy hokimiyat manbai sifatida talqin qilingan hamda targ'ibot tizimlarining zamonaviy, raqamli va tarmoqlashtirilgan jamiyatda qanday ijtimoiy ongni shakllantirishi ochib berilgan (Harvard universiteti, Stanford universiteti, Princeton universiteti, Columbia universiteti, California universiteti AQSh), ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilik fikrining shakllanishi va rasmiy ijtimoiy muloqot maydoniga aylantirilgan va propagandaning "siyosiy manipulyatsiya" shaklida jamoatchilik ongini nazorat qilishi tanqidiy tahlil qilingan (Yale universiteti, Carnegie Mellon universiteti, Texas universiteti AQSh), OAV elita manfaatlariga xizmat qiluvchi targ'ibot vositasi sifatida tavsiflangan hamda zamonaviy propagandaning demokratik jamiyatlarda ham yashirin va murakkab shakllarda ishlashi fosh etilgan, targ'ibot vositalarining haqiqatni emas, balki "haqiqatga o'xshash ko'rinish"ni yaratishi asoslangan hamda zamonaviy targ'ibot sistemalarining postmodern jamiyatda axborot va haqiqat o'rtasidagi chegarani yo'qotishini falsafiy jihatdan ko'rsatilgan (Beloruss davlat universiteti Belorussiya, Oxford universiteti, Cambridge universiteti, London iqtisodiyot va siyosat fanlari maktabi Angliya), targ'ibot vositalari odamlarni ma'naviy qadriyatlar emas, iste'molga asoslangan qarorlar asosida boshqarishi hamda targ'ibot orqali ijtimoiy ongning beqarorligi va tez o'zgaruvchanligi ochib berilgan (Komplutense universiteti, Italiya), targ'ibot shaxsni "ijtimoiy konstruksiya"ga aylantirishi va ong ustidan ijtimoiy strukturalar orqali nazorat qilishi dalillangan, jamiyatida ma'naviy targ'ibotning o'ziga xos xususiyatlariga doir ahamiyatli ilmiy farazlar ilgari surilgan (Respublika Ma'naviyat va markazi huzuridagi Ijtimoiyma'naviy tadqiqotlar instituti, Qarshi davlat universiteti, Qarshi davlat texnika universiteti, O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati O'zbekiston).

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda: targ'ibot faqat axborot tarqatish emas, balki ong ustidan nazoratni amalga oshirish vositasi; ijtimoiy muvofiqlik va g'oyaviy dominatsiya; postmodern va raqamli jamiyatda targ'ibotning falsafiy mezonlari; demokratik muhitda ham targ'ibot; media va targ'ibotning ijtimoiy ongga va jamoatchilik fikriga ta'sirini o'rganish; ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on xabarlar tarqalishining targ'ibot sifatidagi roli; targ'ibot uslublarining siyosiy kuchlar tomonidan jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish maqsadida qo'llanilishi; jamoatchilik fikrini nazorat qilish strategiyalari; zamonaviy targ'ibotning axloqiy va psixologik jihatlari, axborot xavfsizligi va targ'ibot masalalari; targ'ibot tarixiy tahlillari.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Targ'ibot ishlarining mazmuni va uni yo'lga qo'yish masalalari jahon ilm-fanida qadimdan o'rganib kelingan. Biroq XXI asrda ushbu muammo ayniqsa faol o'rganila boshlandi. So'nggi 10 yilda *xorijiy mamlakatlarda* mavzuga bag'ishlangan o'nlab diqqatga sazovor monografiya va maqolalar chop etilgani shundan dalolat beradi. Xususan, Y.Benkler, R.Faris va H.Roberts monografiyalarida targ'ibot texnologiyalarining Amerika jamiyatiga ta'siri, P.Pomeransev destruktiv targ'ibot kampaniyalarining xususiyatlarini, J. Ellyul zamonaviy targ'ibotning insonlar ongiga ta'sirini,

Sh.Zuboff raqamli kapitalizmning targ'ibotdagi rolini, L.Makintayr postmodern jamiyatda targ'ibotning o'rni, K.Pol AQSHning urush va tinchlik davrlaridagi targ'ibot strategiyalari, G.S.Jovett va V.O'Donnel ommaviy kommunikatsiya vositalarining targ'ibotdagi o'rni, R.V.Makchesni ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy va siyosiy ta'siri, M.Sauter internetda targ'ibot va dezinformatsiya tarqalishi jarayonlari, E.S.Herman va N.Xomskiy zamonaviy targ'ibot modellari, E. Higgins raqamli dezinformatsiya va uning global ta'siri, H.Ullax ijtimoiy tarmoqlarning axborot urushidagi roli, D.Patrikarakoc raqamli davrda axborot uchun kurash, J. Saymon global miqyosdagi targ'ibot masalalari, R.Xolidey media manipulyasiyasida qo'llaniladigan targ'ibot uslublari, D. Xorovits siyosiy kurashda qo'llaniladigan targ'ibot uslublari, I.M.Pachepa va R.Richlak dezinformatsiya strategiyalari, E.Parizer targ'ibot kontentlarini filtrlash yo'llarini ochib beradi³.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida targ'ibot bilan bog'liq ilmiy muammolar asosan N.A.Akopyan televideniening madaniy targ'ibotdagi roliga, S.G.Karepova, S.V.Nekrasov, A.N.Pinchuk targ'ibotning jamoatchilik fikrini o'zgartirishdagi imkoniyatlariga, M.V.Kiselev, V.G.Krisko targ'ibotning psixologik aspektlariga, M.Y.Koshmarov, A.Y.Trubetskoy, A.B.Orishev, M.E.Seyfullayeva, O.S.Padalkina iqtisodiy targ'ibotning o'ziga xos xususiyatlariga, A.S.Lisenko, T.S.Melnikova, E.S.Ostapenko, R.I.Grivanov, V.D.Solovey, A.Suladze, S.S.SHerbal siyosiy targ'ibotning o'ziga xos jihatlariga, V.K.Makarova sog'lom turmush targ'iboti uslublari, T.N.Ratrixina, D.A.SHamova targ'ibotning tasnifiy belgilariga, G.G.Pochepsov targ'ibotning hissiy aspektlariga, E.N.Toguzueva ijtimoiy targ'ibot mazmuni va mohiyatiga diqqatni jamlaydi⁴.

³ Qarang: Benkler Y., Faris R., Roberts, H. Network Propaganda: Manipulation, Disinformation, and Radicalization in American Politics.- Oxford: Oxford University Press, 2018 ; Pomerantsev P. This Is Not Propaganda: Adventures in the War Against Reality.- London: Faber & Faber, 2019; Ellul, J. Propaganda: The Formation of Men's Attitudes.- New York: Vintage Books, 2015; Zuboff S. The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power.- New York: PublicAffairs, 2018; McIntyre L. Post-Truth.- Massachusetts: MIT Press, 2018; Paul C. The Information War: American Propaganda, Free Speech, and the War on Terror.- California: RAND Corporation, 2018; Jowett G. S., O'Donnell, V. Propaganda and Persuasion.- New York: SAGE Publications, 2018; McChesney R. W. The Political Economy of Media: Enduring Issues, Emerging Dilemmas.- New York: Monthly Review Press, 2017; Sauter M. Media Manipulation and Disinformation Online.- New York: Data & Society Research Institute, 2018; Herman E. S., Chomsky N. The Propaganda Model Today: Filtering Perception and Awareness. //Journalism Studies, 2015, №1.- Pp. 1–20; Higgins E. Digital Disinformation: The Global War on Truth.- New York: OR Books, 2019; Ullah H. The Weaponization of Social Media: The New Face of Information Warfare.- Washington: Georgetown University Press, 2019; Patrikarakos D. Information Wars: The Battle for Truth in the Digital Age.- London: I.B. Tauris, 2017; Simon J. The New Censorship: Inside the Global Battle for Media Freedom.- New York: Columbia University Press, 2017; Holiday R. Trust Me, I'm Lying: Confessions of a Media Manipulator.- London: Penguin Books, 2015; Horowitz D. The Art of Political War and Other Radical Pursuits.- Washington: Regnery Publishing, 2015; Pacepa I. M., Rychlak R. J. Disinformation: Former Spy Chief Reveals Secret Strategies for Undermining Freedom, Attacking Religion, and Manipulating Your Mind.- Washington: WND Books, 2016; Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains.- New York: W.W. Norton & Company, 2015; Wu T. The Attention Merchants: The Epic Scramble to Get Inside Our Heads.- New York: Alfred A. Knopf, 2016; Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You.- London: Penguin Press, 2015.

⁴ Qarang: Акопян Н.А. Роль телевидения в формировании культурных стереотипов в современном российском обществе.// Наука. Инновации. Технологии, 2009, №5.- 129-134-с.; Кареева С.Г., Некрасов С.В., Пинчук А.Н. Пропаганда как метод воздействия на общественное сознание: общий теоретический аспект.// Вестник НГУЭУ, 2020, №4.- 225-226-с.; Киселев М.В. Психологические аспекты пропаганды.// <https://psyfactor.org>; Кошмаров М.Ю., Трубецкой А.Ю. Экономические теории и эволюция пропаганды.// Мир новой экономики, 2017, №4.- 48-54-с.; Крысько В.Г. Секреты психологической войны (цели, задачи, методы,

O'zbekistonda mavzuning ma'naviy targ'ibot bilan bog'liq aspektlari keng tadqiq qilingan. Xususan, O'.Abilov, M. Imomnazarov, S.Otamurodov, A.Erkayev ishlarida ma'naviy targ'ibot masalalari ma'naviyatning umumnazariy masalalari nuqtai nazaridan ⁵, Sh.Akramova, D.Ismatillayeva, B.Ochilova, M.Quronov, M.Xajiyeva, B.Turdiyev, N.Salomov, N.Temirova va boshqalarning ilmiy ishlarida - ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan ⁶, A.Mavrulov, O. Muhammadiyeva, U.Qoraboyev, Sh.To'rayev, A.Sharipov, M.Pardayeva, I.To'raqulova ilmiy ishlarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nuqtai nazaridan ⁷, M.Bekmurodov, M.Bo'ronov, Q.Nazarov, S.Choriyev, M.Qahhorova, R.Ro'ziyeva, G.Tulenova, B.To'rayev, U.Yazdanov ilmiy ishlarida jamiyatdagi ma'naviy jarayonlar nuqtai nazaridan tadqiq etilgan⁸.

формы, опыт).- Минск: Харвест, 1999; Лысенко А.С. Пропаганда как неотъемлемая часть политической системы.// Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения, 2016, №49-1.- 103-106-с.; Макарова В.К. Пропаганда здорового образа жизни в образовательной среде.// Таврический научный обозреватель, 2016, №5-1.- 49-54-с.; Мельникова Т.С. Пропаганда как технология политического манипулирования.// Власть, 2010, №8.- 47-51-с.; Оришев А.Б. Реклама: определение понятия, экономическая роль и ее особенности в России.// Бизнес и дизайн ревю, 2016, №4.- 5-с.; Остапенко Е.С., Гриванов Р.И. Основные методы пропаганды как средство манипуляции общественным мнением.// Личность как субъект социальных изменений: экономические, политико-правовые и гуманитарные аспекты. Мат. междунар. научно-теорет. конф.- Белгород: Аппи, 2022; Патрихина Т.Н., Шламова Д.А. Пропаганда: сущность научной дефиниции, подходы к классификации.// Молодой ученый, 2015, №4.- 305-308-с.; Почепцов Г.Г. Эмоциональная пропаганда как способ формирования массового сознания.// Relga, 2020, №8; Сейфуллаева М.Э., Падалькина О.С. Маркетинговая стратегия табачных корпораций с учетом принципов маркетинга 3. 0.// Вестник Воронежского государственного университета инженерных технологий, 2013, №1.- 237-241-с.; Соловей В.Д. Особенности политической пропаганды в цифровой среде.// Гуманитарные науки. Вестник Финансового университета, 2018, №1.- 81-87-с.; Тогузаева Е.Н. Социальная реклама и пропаганда: сложности правового регулирования. // Известия Саратовского университета. Новая серия. Серия Экономика. Управление. Право, 2014, №4.- 662-668-с.; Цуладзе А. Большая манипулятивная игра.- М.:Алгоритм, 2000; Щербаль С.С. Технологии политической пропаганды в избирательных кампаниях российских партий: на примере парламентских выборов: Автореф. дисс. канд. полит. н.- Краснодар: Кубанский ГУ, 2012; Яковлева А. Э. Пропаганда как общественное явление.// Юный ученый, 2024, № 2.- 165-168-с.

⁵ Qarang: Abilov O'. Milliy g'oya. Ma'naviy omillar.- T.:Ma'naviyat, 1999; Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.- T.,1998; Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.:Ma'naviyat, 2008; Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot.- T.: Ma'naviyat, 2009.

⁶ Qarang: Akramova Sh., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari.- T.:Ma'-naviyat, 2015; Ismatillayeva D. Globallashuv jarayonida milliy-ma'naviy immunitetni takomillashtirish muammolari: Fals.f.n. ... diss. avtoref.- T.,2012; Ochilova B. Ajddolar merosiga ixlosmandlik va shaxs ma'naviy-axloqiy kamoloti: Fals.f.d. ... diss. avtoref.- T.,2006; Rustamova R. Talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlar samarasini oshirish muammolari: Ped.f.n. ... diss. avtoref.- T., 2008; Temirova N. Talaba yoshlarning ma'naviy shakllanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi: Fals.f.n. ... diss. avtoref.- T., 2007; Quronov M. Milliy tarbiya.- T.:Ma'naviyat, 2007. Quronov M., Xajieva M. O'zbekistonda bag'rikenglik jarayoni. – T.: «Abu-matbuot-konsalt», 2008.; Turdiyev B.S. O'zbekistonning ma'naviy yangilanish strategiyasi. //Ilmiy risola. Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020. - 48 b. Jabborov X. Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllantirishning pedagogik-psixologik treninglari.- T.: Muharrir,2017.

⁷ Qarang: Baydjanov I. Ma'naviyat sarchashmasi.- T.: Ridero, 2016; Ma'naviyat targ'ibotchisi. // Mavrulov A., To'rayev Sh.,Daminov I. va b.- T.: Sano-standart, 2016; Muhammadiyeva O. Yoshlarning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi omillar.// Ijtimoiy fikr.Inson huquqlari.- 2008.- №4; Sharipov A. Yangi O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy islohotlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Monografiya. – Buxoro, 2021. Pardayeva M. Alisher Navoiy asarlarida Komil inson g'oyasi. - Buxoro.: Durdona, 2016.; To'raqulova I. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar.- T.: Fan va texnologiya, 2013; Qoraboyev U. Madaniy tadbirlar.- T.: Fan,2003.

⁸ Qarang:Bo'ronov M. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy siyosatning tadrijiy rivojlanishi.- T.:Ma'naviyat, 2016.; Ro'ziyeva R.X. Jamiyatning ma'naviy yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini shakllantirish masalalari. Fals.f.d. ... diss. avtoref.- T., 2012; To'lenova G. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma'naviy omilning roli: Fals.f.d. ... diss. avtoref.- T.,2006; To'rayev Sh. Ma'naviy tahdid: falsafiy talqin.- Toshkent: Muharrir, 2010; Choriev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. Ikkinchi kitob. - T.: Chinor, 2002.; Yazdanov U. O'zbekistonda

Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda zamonaviy targ'ibot sistemasi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy va ma'naviy targ'ibotlarni o'z ichiga olgan yaxlit megasistema sifatida ochib berilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqotda muammoning konseptual tahlili falsafiy jihatlarini tadqiqoti obyekti sifatida tanlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qarshi davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Barkamol inson shaxsining shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillar dialektikasi" (2020-2025 yy) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi milliy ma'naviyatni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy targ'ibot sistemalarining samaradorligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"targ'ibot" tushunchasining mazmuni va yaxlit sistema sifatidagi tuzilishini tavsiflash;

targ'ibotning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini aniqlash va umumlashtirish;

zamonaviy iqtisodiy targ'ibotning o'ziga xos xususiyatlari hamda uning ta'sirida kishilar iqtisodiy tafakkuri va faoliyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarni ochib berish;

zamonaviy ijtimoiy targ'ibot mazmuni, funksiyalari hamda uning kishilar xulq-atvoriga ta'sirini aniqlashtirish;

siyosiy-mafkuraviy targ'ibotning zamonaviy nuanslari hamda shaxs siyosiy qarashlari va pozitsiyasining yangilanishidagi rolini tavsiflash;

ma'naviy targ'ibotning konstruktiv mohiyati va uning kishilar fazilatlarini hamda qadriyatlarini transformatsiyasidagi o'rnini asoslash;

zamonaviy targ'ibot sistemalari faoliyatining ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish hamda jamiyat a'zolari ongi va foliyatini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini zamonaviy targ'ibot tizimlarining jamiyatdagi ijtimoiy ong, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarga falsafiy, mafkuraviy va kommunikativ ta'sir etish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti targ'ibot sistemalarining strukturasi va shakllanish mexanizmlari, ularning jamiyatda g'oya va qadriyatlar tizimini shakllantirishdagi funksional xususiyatlari hamda jamoatchilik fikriga, shaxs ongi va dunyoqarashiga ta'sirini, bu ta'sirning ijtimoiy oqibatlarini tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, komparativistik tahlil, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, diskursiv tahlil, sotsiologik so'rov kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamoatchilik fikrini rivojlantirish masalalari.- T.: Nishon-noshir, 2015; Qahhorova M. Jamiyatda ma'naviy-axloqiy muhit: muammo va yechimlar: Fals.f.n. ... diss. avtoref.- T.,2012.

iqtisodiy faoliyatga ongli, maqsadli, barqaror ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy targ'ibot – iqtisodiy intizomga, mehnatga intilish, raqobatbardoshlik, tejamlilik va samaradorlik g'oyalari shakllantirish kabi (konstruktiv) hamda ijtimoiy ongda dabdababozlik, isrofgarchilikka undovchi, soxta ehtiyoj va noto'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilishga sabab bo'lish kabi (destruktiv) xususiyatlari orqali maxsulot va xizmatlarga sun'iy talabni yuzaga keltirishi asoslab berilgan;

ijtimoiy targ'ibotning meditatif texnikalar, mindfulness texnologiyalari bo'yicha treninglar ko'rinishidagi konstruktiv tipi kishilarda jismoniy faollik, ruhiy sog'lomlik, sog'lom ovqatlanish to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirishi (nutritsion axborot, sog'lom turmush tarzi), uning destruktiv tipi sun'iy ideal standartlar, psixologik bosim va giperdinamik turmush tarzi kabi nooqilona hatti-harakatlarni vujudga keltirishi isbotlangan;

siyosiy-mafkuraviy targ'ibotning jamiyatni yuksaltirish va milliy birlikni kuchaytirishga oid konstruktiv yo'nalishi mafkuraviy e'tiqodni mustahkamlashi, vatanparvarlik, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ularini, fuqarolik mas'uliyatini kuchaytirishi hamda siyosiy e'tiqodni yemirish va ma'naviy bo'shliqni kuchaytirishga oid destruktiv yo'nalishi siyosiy apatiya, siyosiy tafakkur stagnatsiyasiga sabab bo'lishi, ijtimoiy befarqlik, ideologik betaraflikka olib kelishi aniqlashtirilgan;

zamonaviy jamiyatda ma'naviy targ'ibotning kishilarning aqliy, axloqiy, huquqiy va mehnat fazilatlari mazmunini o'zgartirish kabi ma'naviy qadriyatlar tizimiga doir xususiyatlari (konstruktiv) hamda ijtimoiy ongni zaiflashtirish, axloqiy-ruhiy tushkunlikka sabab bo'lish, ma'naviyatni yemirishga yo'naltirilgan targ'ibot esa nafrat, agressiya, o'zini ustun qo'yish kabi ijtimoiy illatlarning keng ildiz otishi (destruktiv) xavfini kuchaytirishi asoslangan;

zamonaviy jamiyat sharoitida kishilar ongi va foliyatini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi nazariy-metodologik yondashuvlarning tanqidiy tafakkurni yuksaltirish (ongli munosabat, ilmiy asoslangan, mustaqil yondashuv), jamoatchilik fikrini yanada sog'lomlashtirish (axborotni tahlil qilish, ijtimoiy dialog, murosa), gumanistik e'tiqod va fazilatlarni ommalashtirish (mehr, bag'rikenglik, mas'uliyat) yo'llari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan trening modullari (axborotlarni tahlil qilish, soxta g'oyalarga qarshi daliliy fikr yuritish), amaliy mashg'ulotlar (mustaqil fikr, dalil asosida o'z nuqtai nazarini himoya qilish), media tahlil xaritalari (manipulyativ yoki destruktiv mazmundagi targ'ibot turlarini baholash va zararsizlantirish) kabi innovatsion yondashuvlar asoslab berilgan;

zamonaviy targ'ibot tizimlari ommaviy ong va ijtimoiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatishi, siyosiy irodani shakllantirishi, mafkuraviy barqarorlikni saqlash va axborot xavfsizligini ta'minlashda strategik vosita ekanligi aniqlangan hamda O'zbekiston jamiyatiga axborot xavfsizligi, mafkuraviy barqarorlik va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni mustahkamlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etishga nazariy-uslubiy asos sifatida xizmat qilishi ochib berilgan;

xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti qiyosiy tahlili asosida ma'naviy targ'ibotning jamiyatda axloqiy-ruhiy muvozanat, ijtimoiy hamjihatlik, milliy

o'zlik, va mas'uliyatli fuqarolikni shakllantirish ahamiyati asosida ma'naviy xavfsizlik siyosatini yuritish, konstruktiv modelni institutsionallashtirish zarurati aniqlashtirilgan;

jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish va tafakkurni konstruktiv ruhda shakllantirish bo'yicha sog'lom ijtimoiy pozitsiyalarni ommalashtiruvchi (adolat, mas'uliyat, vatanparvarlik, bag'rikenglik) kontent siyosatini ishlab chiqish hamda ma'naviy mas'uliyat mezonlarini yaratish bo'yicha konseptual tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma'lumotlar, sotsiologik so'rov natijalariga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo'yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan bo'lib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar, taklif va xulosalardan zamonaviy targ'ibot tizimlarining nafaqat kommunikativ, balki jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, g'oyaviy immunitetni kuchaytirish va ijtimoiy ongni boshqarishdagi rolini falsafiy nuqtai nazardan tahlil etishda, ijtimoiy ong, qadriyatlar tizimi va g'oyaviy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini ochib berishda, global va milliy targ'ibot modellarining qiyosiy tahlili orqali O'zbekistonning axborot xavfsizligi va ma'rifiy siyosatida yondashuvlarni shakllantirishda hamda kelgusidagi ilmiy tadqiqotlar uchun muayyan nazariy manba sifatida, shuningdek zamonaviy targ'ibot texnologiyalarining jamoatchilik fikriga ta'siriga doir konseptual yondashuvni ishlab chiqish, global targ'ibot jarayonlarining O'zbekiston jamiyatiga ta'siri bo'yicha farazlarni shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ijtimoiy ongni boshqarish, g'oyaviy barqarorlikni mustahkamlash, ma'naviy immunitetni oshirish hamda zamonaviy axborot makonida targ'ibot siyosatini takomillashtirish bo'yicha tashkilotlar faoliyatida, targ'ibot siyosatining g'oyaviy-metodik asoslarini ishlab chiqishda, ma'naviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi ilg'or targ'ibot konsepsiyalarini joriy etishda, "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi va uning hududiy bo'linmalarida g'oyaviy-ma'naviy kontentni ishlab chiqish, targ'ibotchilarning malakasini oshirish dasturlarini ishlab chiqishda, yoshlar bilan ishlash institutlarining vatanparvarlik, milliy g'urur, mafkuraviy barqarorlikni shakllantirish faoliyatida, ta'lim muassasalari mafkuraviy tayyorgarlikni kuchaytirish, televideniye, radio va internet platformalarida media-falsafiy tahlillar asosida ijtimoiy mas'uliyatli, milliy qadriyatga asoslangan targ'ibot mahsulotlarini yaratishda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan "Falsafa", "Ijtimoiy falsafa", "Tarix", "Dinshunoslik" fanlari, "Ma'rifat darslari"da, "Ma'naviyat asoslari" kabi fanlardan

o‘tiladigan nazariy va amaliy mashg‘ulotlar mazmunini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zamonaviy targ‘ibot sistemalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot asosida olingan ilmiy natijalar asosida:

iqtisodiy faoliyatga ongli, maqsadli, barqaror ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy targ‘ibot – iqtisodiy intizomga, mehnatga intilish, raqobatbardoshlik, tejamlilik va samaradorlik g‘oyalarini shakllantirish kabi (konstruktiv), va ijtimoiy ongda dabdababozlik, isrofgarchilikka undovchi, soxta ehtiyoj va noto‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilishga sabab bo‘lish kabi (destruktiv) xususiyatlari bayon etilgan nazariy mulohazalardan Qarshi davlat texnika universitetida bajarilgan AIF-2/15 raqam “O‘zbekistonda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida oliy ta’lim tizimida masofaviy ta’limni tashkil etish modeli va texnologiyasini ishlab chiqish” (2019-2021 yy) amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Qarshi davlat texnika universitetining 2025-yil 19-maydagi 02/1-1080-son ma’lumotnomasi). Natijada, amaliy tadqiqot loyihasining ilmiy-amaliy ahamiyatini oshirishga va yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

ijtimoiy targ‘ibotning meditatif texnikalar, mindfulness texnologiyalari bo‘yicha treninglar ko‘rinishidagi konstruktiv tipi kishilarda jismoniy faollik, ruhiy sog‘lomlik, sog‘lom ovqatlanish to‘g‘risidagi tasavvurlarni kengaytirishi (nutritsion axborot, sog‘lom turmush tarzi), uning destruktiv tipi sun’iy ideal standartlar, psixologik bosim va giperdinamik turmush tarzi kabi nooqilona hatti-harakatlarni vujudga keltirishiga doir nazariy xulosalar va amaliy takliflardan “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasi tarkibidagi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarix maydoni” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 15-apreldagi 01-30/244-son ma’lumotnomasi). Natijada, bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini ochib berishga va aholini turli tahdidlardan ogoh qilishga xizmat qilgan;

siyosiy-mafkuraviy targ‘ibotning jamiyatni yuksaltirish va milliy birlikni kuchaytirishga oid konstruktiv yo‘nalishi mafkuraviy e’tiqodni mustahkamlashi, vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini, fuqarolik mas’uliyatini kuchaytirishi hamda siyosiy e’tiqodni yemirish va ma’naviy bo‘shliqni kuchaytirishga oid destruktiv yo‘nalishi siyosiy apatiya, siyosiy tafakkur stagnatsiyasiga sabab bo‘lishi, ijtimoiy befarqlik, ideologik betaraflikka olib kelishiga oid umumlashmalar va amaliy tavsiyalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining targ‘ibot faoliyatida, jumladan, 2024-yilda Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining III yo‘nalishida belgilangan “Milliy g‘oya targ‘ibotini kuchaytirish, jamiyatda sog‘lom mafkura, yangi ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyatni barpo etishga qaratilgan chora-tadbirlar” 19-bandli “Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash doirasida zamonaviy va ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish”da foydalanilgan (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar

institutining 2025-yil 15-apreldagi 10/193-son ma'lumotnomasi). Natijada, zamonaviy targ'ibot sistemalarini ijtimoiy falsafiy tahlil etishga va shu bilan birga markaz faoliyatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyatda ma'naviy targ'ibotning kishilarning aqliy, axloqiy, huquqiy va mehnat fazilatlari mazmunini o'zgartirish kabi ma'naviy qadriyatlar tizimiga doir xususiyatlari (konstruktiv) hamda ijtimoiy ongni zaiflashtirish, axloqiy-ruhiy tushkunlikka sabab bo'lish, ma'naviyatni yemirishga yo'naltirilgan targ'ibot esa nafrat, agressiya, o'zini ustun qo'yish kabi ijtimoiy illatlarning keng ildiz otishi (destruktiv) xavfini kuchaytirishiga doir xulosalaridan O'zbekiston Yoshlar ittifoqining faoliyatida, jumladan, O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining IV-bob "Yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari" V ustuvor yo'nalishida belgilangan: Yoshlarni "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari!" g'oyasi atrofida birlashtirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashning 2025-yil 15-apreldagi 04-13/308-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida zamonaviy targ'ibot sistemalarining asl maqsadlarini aniqlashda, yoshlarda turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qilgan;

zamonaviy jamiyat sharoitida kishilar ongi va foliyatini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi nazariy-metodologik yondashuvlarning tanqidiy tafakkurni yuksaltirish (ongli munosabat, ilmiy asoslangan, mustaqil yondashuv), jamoatchilik fikrini yanada sog'lomlashtirish (axborotni tahlil qilish, ijtimoiy dialog, murosa), gumanistik e'tiqod va fazilatlarni ommalashtirish (mehr, bag'rikenglik, mas'uliyat) yo'llariga doir yangilik va tavsiyalardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi faoliyatida, jumladan, Saylov oldi dasturning 5. "Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan jamiyat barpo etish" bo'limining 5.1. "Davlat va jamoat tashkilotlari boshqaruvini takomillashtirish" hamda 5.1.1. "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari samaradorligini oshirish" bandlari, shuningdek, 6. "Xavfsizlik va aholi muhofazasini kuchaytirish" bo'limining 6.1. "Xavfsiz milliy axborot makonini rivojlantirish" bandining ijrosiga qaratilgan targ'ibot va tashviqot tadbirlarida foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 28-maydagi 02/06-52-son ma'lumotnomasi). Natijada, yangi rivojlanish bosqichida zamonaviy targ'ibot sistemalarining asl maqsadlarini aniqlashda, yoshlarda turli ma'naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishda, targ'ibot-tashviqot ishlarini shaklan va mazmunan boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 34 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 13 ta ilmiy maqola (11 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 238 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Targ'ibot sistemasini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “targ'ibot” tushunchasining mazmuni ochib berilgan va targ'ibot sistemasining tarkibiy tuzilishi hamda zamonaviy jamiyatdagi roli tadqiq etilgan. Shuningdek, targ'ibot sistemasining asosiy elementlari tavsiflangan va har qanday zamonaviy jamiyatda konstruktiv targ'ibot sistemasi muhim rol o'ynashi, destruktiv sistemalar esa uni tanazzulga olib kelishi asoslab berilgan.

Targ'ibot ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, *targ'ibot* deganda muayyan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyani shakllantirish maqsadida ma'lum bir g'oya, fikr, qadriyat, norma, ma'lumot, fakt yoki argumentning tarqatilishi jarayoni tushuniladi⁹. Uning mazmunini mufassalroq ochib berishda lotin tilidagi muqobili hisoblangan “tarqatilishi zarur bo'lgan [fikir]” ma'nosini anglatuvchi “propaganda” so'zi muhim ahamiyat kasb etadi¹⁰.

Tadqiqotchi fikricha, *targ'ibot nafaqat ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos turi, ma'lum bir g'oya yoxud qarashning tarqatilishi jarayoni, balki ana shunday faoliyat turini amalga oshirish, g'oyaning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish imkonini beradigan ijtimoiy mexanizmni o'zida mujassam qilgan murakkab sistemadir*. Har qanday targ'ibotning *asl maqsadi* muayyan sub'ektning manfaatlariga mos bo'lgan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiyani shakllantirish bilan bog'liq.

Dissertatsiyada qo'yilgan maqsadning xarakteriga qarab targ'ibotning ikki tipi tasniflangan. Agar maqsad jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni ta'minlash, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, ijtimoiy ahamiyatga ega g'oya va qarashlarni tarqatish bilan bog'langan bo'lsa, targ'ibot *konstruktiv* xarakterga ega bo'ladi¹¹. Agar maqsad hamjihatlik va barqarorlikni yemirish, ijtimoiy kelishmovchilikni keltirib chiqarish, faqat tor doiralarga qadrli bo'lgan yoxud

⁹ Qarang: Маврулов А., Тўраев Ш., Даминов И. ва б. Маънавий тарғиботчиси. - Тошкент: Сано-стандарт, 2016. - Б.13.

¹⁰ Qarang: Философия: Энциклопедический словарь./ под. ред. А.А. Ивина. - М.:Гардарики, 2004. - С. 23

¹¹ Цуладзе А. Большая манипулятивная игра.- М.:Алгоритм, 2000.- С. 100-101.

mutlaqo g'ayriinsoniy xarakterga ega g'oya va qarashlarni yoyish va shu kabi g'ayriinsoniy muddaolar bilan bog'liq bo'lsa, targ'ibot *destruktiv* xarakterga ega bo'ladi¹².

Targ'ibot sistemasi murakkab tarkibga ega bo'lgan qudratli kuchdir. Targ'ibot tarkibida uning *subyekt*i alohida e'tiborga loyiq. Chunki har qanday targ'ibot uni amalga oshirayotgan va samarasidan manfaatdor bo'lgan davlat, guruh, partiya, etnik birlik va shu kabilarning maqsad-muddaolariga monand ravishda yo'lga qo'yiladi. Targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish uchun:

1. Subyekt o'z manfaatlarini chuqur anglab etgan bo'lmog'i lozim.
2. Subyekt o'z manfaatlariga mos bo'lgan maqsadni ifodalab olmog'i kerak. Biror maqsadga xizmat qilmaydigan targ'ibot bo'lishi mumkin emas.
3. Subyekt o'z maqsadiga erishish imkonini beradigan jamoatchilik fikri va hayotiy pozitsiya mazmuni va shakli haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i darkor.
4. Subyekt targ'ibotni amalga oshirish imkonini beradigan resurs va mexanizmga ega bo'lmog'i kerak.

Tadqiqotda targ'ibotni amalga oshirish imkonini beradigan resurs va mexanizm haqida gap ketganda *targ'ibotchi shaxsini* alohida e'tirof etib o'tish lozimligi ta'kidlangan. Chunki targ'ibot subyekt o'ziga maqbul fikr yoxud g'oyani jamoatchilikka targ'ibotchi orqali yetkazadi. Shu boisdan targ'ibotchi shaxsi targ'ibot sistemasining muhim tarkibiy elementlaridan biri sanaladi.

Targ'ibot tarkibining yana bir muhim elementi *targ'ibot mazmuni* bilan bog'liq. Targ'ibot mazmuni tezis, uni asoslash uchun keltirilgan fakt va argumentlarlar majmui, biror harakatga undovchi chaqiriqni o'zida mujassam qiladi. Targ'ibot mazmunini ifodalovchi asosiy element bo'lgan tezis targ'ibot subyektining manfaat va maqsad-muddaolariga mutanosib ravishda shakllantirilgan fikr, g'oya yoki ma'lumotdan tarkib topadi. Har qanday targ'ibotda ilgari surilgan tezisni asoslab beruvchi fakt va argumentlar muhim rol o'ynaydi. Malakali targ'ibotchi oddiy faktni o'z manfaatlariga muvofiq tarzda talqin qilish bilan maqsadiga erishadi.

Dissertant fikricha, *targ'ibot shakli* ham turli-tumanligi bilan ajralib turadi. Mutaxassislar targ'ibot shakllarini uning ma'lum maqsadga yo'nalganligi, axborot manbalarining turi, amalga oshirilishi tarziga qarab tasniflaydilar¹³. Bunday yondashuv targ'ibot shakllarini turli rakurslarda tahlil qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyada amalga oshirilishi tarziga qarab targ'ibot vizual, media va virtual shakllarga bo'lingan. Targ'ibotni amalga oshirish shakli uning mazmuni, yetkazilishi zarur bo'lgan g'oya yoki ma'lumot, ta'sir obyektining xarakteriga mutanosib ravishda tanlanadi. U yoki bu ma'lumotni ommaviy ta'sir ko'rsatish yo'li bilan tarqatish kifoya qilgan holatda vizual targ'ibotdan foydalanish mumkin. Ma'lumotning turli jihatlarini tahlil qilib berish, tushuntirish zaruriyati ustuvor bo'lgan holatda media targ'ibot shakli ahamiyatliroq bo'ladi. Nihoyat, aholi tarqoq holda istiqomat qiladigan hududlarda virtual targ'ibot orqali ta'sir o'tkaziladi.

Targ'ibot turli *ushublarda* amalga oshiriladi. Uslub shaxs, ijtimoiy guruh, xalq ongiga ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos quroli, instrumentidir. Targ'ibotning

¹² Чуладзе А. Большая манипулятивная игра.- М.:Алгоритм, 2000.- С. 100-101.

¹³ Qarang: Киселев М.В. Психологические аспекты пропаганды.// <https://psyfactor.org>.

samarasi ko'p jihatdan aynan ana shu uslubning to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Zamonaviy targ'ibot sistemalari orasida ayniqsa tushuntirish, ishonitirish, namoyish qilish, tanqid qilish kabi uslublar alohida o'rin tutadi. Ularning barchasi konstruktiv yoki destruktiv targ'ibotning ko'plab shakllarida keng qo'llanib kelinmoqda. Biroq targ'ibot metodologiyasidan voqif malakali targ'ibotchigina ular orasidan eng samaralilarini tanlay oladi. Bunda quyidagilarga e'tiborni qaratish zarur:

1. Uslub targ'ibotning asl maqsadlariga muvofiq holda tanlanmog'i darkor.
2. Uslub targ'ibotning vazifalariga mutanosib bo'lmog'i kerak.
3. Uslub targ'ibotning mazmuni bilan uyg'un bo'lmog'i shart.
4. Uslub targ'ibot shaklidan kelib chiqib tanlanishi lozim.
5. Uslub targ'ibotchining kognitiv, praksiologik va aksiologik xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.
6. Uslub targ'ibot subyektining moliyaviy va moddiy-texnika resurslariga monand tanlanmog'i lozim.
7. Uslub targ'ibot obyektining o'ziga xos xususiyatlariga javob bermog'i kerak.

Targ'ibot usullari ham e'tiborga loyiq jihat. Ular targ'ibot ishlarining yo'nalishini belgilab beradi. Targ'ibot usullari ommaviy ta'sir usullari, jamoaviy ta'sir usullari va individual ta'sir usullariga bo'linadi. Ommaviy ta'sir usullari targ'ibot ishlari bilan butun jamiyatni qamrab olish imkonini beradi. Jamoaviy ta'sir usullarining ahamiyati ham kam emas. Targ'ibot usullarining yana bir guruhi individual ta'sir usullarini tashkil qiladi.

Dissertant fikricha, targ'ibot jarayoni o'z *omillariga* – unga va uning asosiy natijalariga ta'sir ko'rsatishga qodir bo'lgan shart-sharoitlar, sabablar, parametrlar va ko'rsatkichlarga ega. Mazkur omillarni obyektiv va subyektiv omillarga bo'lish mumkin. Obyektiv omillar – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy-madaniy omillardan tashkil topadi. Bu omillar, bir tomondan, targ'ibot samarasini belgilab beradi. Ikkinchi tomondan esa, ushbu omillarning o'zi targ'ibot manbai vazifasini o'taydi. Chunonchi, yuqori sur'atdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, yuqori turmush darajasining o'zi bunyodkorlikka, ezgulikka va vatanparvarlikka undab turishi mumkin.

Targ'ibot tarkibining so'nggi elementi uning *vositalari* bilan bog'liq. Ular – vizual, ommaviy, virtual, san'at bilan bog'liq vositalarga birlashtirilgan. Targ'ibot sistemasi takomillashib borgani sayin uning yangi va yangi vositalari ham vujudga kelib boraveradi. Targ'ibot sistemasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlabgina tom ma'noda qudrat kasb qila boshladi. Chunki bu davrga kelib, kishilarning ongi va dunyoqarashiga maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatish, ularda muayyan ijtimoiy fikr va pozitsiyani shakllantirish, ma'lum yo'nalishda faoliyat ko'rsatishga undash zaruriyati oshib ketdi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, XXI asrda targ'ibot sistemasi turli maqsadlarga erishishning eng ishonchli vositalaridan biriga aylandi. Avvalo, targ'ibot sistemasi imkoniyatlaridan jamoatchilikda maqbul fikrni shakllantirish maqsadida foydalanish avj olmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikri muhim funksiyalarni bajarmoqda.

Birinchidan, XXI asrda targ'ibot sistemasi fuqarolarning xabardorligi darajasini oshirish vositasiga aylandi. Turli bilimlar, ma'lumotlar, tashabbuslar, takliflar aynan uning imkoniyatlari orqali tarqatilmoqda, ommalashtirilmoqda. *Ikkinchidan*, targ'ibot sistemasi milliy va umuminsoniy madaniyatga doir bilimlar, g'oyalar, qarashlarni tarqatuvchi manbaga aylandi. *Uchinchidan*, kishilarning xulq-atvori va faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda ham targ'ibot sistemasi imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. *To'rtinchidan*, targ'ibot sistemasining ijtimoiy ahamiyati yana shuning bilan bog'liqki, u ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri vazifasini o'tamoqda. Zamonaviy jamiyatda targ'ibot sistemasi yuqorida tilga olingan to'rt omilni vujudga keltiruvchi manba vazifasini o'tamoqda.

Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida targ'ibot sistemasi destruktiv targ'ibotlarga qarshi turuvchi mexanizm vazifasini o'tamoqda. Bunday vaziyatda faqat pozitiv ruhdagi targ'ibot sistemasigina mamlakatni va millatni destruktiv targ'ibotning salbiy oqibatlaridan xalos qila oladi. Ko'rinib turibdiki, zamonaviy jamiyatda targ'ibot sistemasi o'ta muhim va ahamiyatli rol o'ynamoqda. Bugungi kunda har qanday jamiyatda targ'ibot sistemasi mutlaqo zaruriy mexanizmligicha qolmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Zamonaviy targ'ibot sistemalari mazmuni va maqsadlarining falsafiy tahlili”** deb nomlanib, unda zamonaviy iqtisodiy targ'ibot va uning o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy targ'ibot mazmuni va funksiyalari, siyosiy-mafkuraviy targ'ibot maqsadi va zamonaviy nuanslari hamda ma'naviy targ'ibot va uning mutlaq konstruktiv mohiyati ochib berilgan.

O'tgan asrning oxirgi choragidan boshlab muayyan g'oya yoxud qarashning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish imkonini beradigan ijtimoiy mexanizmni o'zida mujassam qilgan targ'ibot sistemasi bir necha sistemalarni o'zida jamlagan megasistemaga aylandi. Shu boisdan bugun yagona targ'ibot sistemasi haqida emas, o'zaro aloqador bo'lgan, biroq turli maqsadlarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladigan zamonaviy targ'ibot sistemalari haqida gapirish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Dissertant fikricha, o'ta murakkab megasistema tusini olgan zamonaviy targ'ibot sistemalarida *iqtisodiy targ'ibot* alohida o'rin egallaydi. *Iqtisodiy targ'ibot – iqtisodiy ahamiyatga molik g'oyani tarqatish orqali jamoatchilikda muayyan iqtisodiy nuqtiyai-nazarni, munosabatni va xulq-atvorni shakllantirishga qaratilgan jarayondir.*

Iqtisodiy targ'ibotdan manfaatdor bo'lgan subyektlar talaygina. Mazkur subyektlarning har biri iqtisodiy targ'ibotdan o'z maqsadlarini ko'zlaydi. Jumladan, davlat iqtisodiy targ'ibot orqali o'z iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyatli kechayotganini isbotlashga, iqtisodiy qarorlarini asoslashga intiladi. Xususi kompaniyalar ham iqtisodiy targ'ibot imkoniyatlaridan o'z maqsadlarida foydalanadilar. Ular iqtisodiy targ'ibot orqali o'zlari ishlab chiqargan maxsulot yoki xizmatni zamonaviy inson turmushi uchun o'ta zarur bo'lgan narsalar sifatida taqdim etishga intiladilar.

Zamonaviy dunyoda iqtisodiy targ'ibot jamoatchilik fikriga tizimli ta'sir qilish, muayyan iqtisodiy qarashlarni shakllantirishning kuchli manbaiga aylandi.

Shu boisdan davlat organlari, xususiy kompaniyalar, jamoat tashkilotlari uni eng maqbul shakllarda amalga oshirishga, yangi va yangi kreativ shakllarini ishlab chiqishga, bu shakllarni faol amaliyotga tatbiq etishga harakat qilmoqdalar¹⁴. Davlat organlari, xususiy kompaniyalar va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy targ'ibot shakllari murakkablash-gani sayin uning yangi va yangi uslublari vujudga kelmoqda. Iqtisodiy targ'ibot uslublarning muayyan tasnifi esa hozirga qadar shakllantirilgani yo'q.

Tadqiqotda shuni inobatga olgan holda amaliyotda faol qo'llanilayotgani bois ilmiy manbalarda bot-bot tilga olinayotgan iqtisodiy targ'ibot uslublarning ayrimlari tavsiflangan:

1. Ko'p bora takrorlash uslubi.
2. Yarim haqiqat uslubi.
3. Emotsional ta'sir ko'rsatish uslubi.
4. Dushman obrazini yaratish uslubi.
5. Nufuzdan foydalanish uslubi.
6. Ijtimoiy isbot uslubi¹⁵.

Dissertatsiyada targ'ibot megasistemasida *ijtimoiy targ'ibotning* ham tutgan o'rnini alohida ahamiyat kasb qilib borayotganligi asoslab berilgana. Buning jiddiy sabablari mavjud. Sabab shundaki, birinchidan, so'nggi yarim asr mobaynida zamonaviy jamiyatda turmush kechirishning turfa shakllari, tarzlari qaror topdi. Ikkinchidan, zamonaviy jamiyat oila deb atalmish qudratli ijtimoiy institut transformatsiyasini boshidan kechirmoqda. Uchinchidan, globallashuv, texnologik taraqqiyot, axborotlar oqimining intensivlashuvi, ijtimoiy-stratifikatsion o'zgarishlar kishilar o'rtasidagi munosabatlarga butkul o'zgacha tus berdi. To'rtinchidan, jamiyat a'zolari o'rtasidagi turli munosabatlarni ta'minlashga xizmat qiladigan muassasalar – ta'lim maskanlari, sog'iqli saqlash obyektlari, ta'minot va ijtimoiy himoya tashkilotlari, madaniyat uyushmalari mazmunan va tarkiban boyimoqda. Beshinchidan, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy muammolar o'ta murakkab tus olmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf qilish uchun avvalo keng jamoatchilikni ularning sabablari va oqibatlari, namoyon bo'lish shakllaridan voqif qilish, ularni hal qilish lozimligiga ishontirish zarur bo'lmoqda. Bu zaruriyat ham ijtimoiy targ'ibot tizimidan tizimli foydalanish masalasini kun tartibiga qo'ymoqda.

Yuqoridagi sabablar ijtimoiy targ'ibot sistemasini takomil toptirishga, uning imkoniyatlaridan imkon qadar samaraliroq foydalanishga undamoqda. Chunki *ijtimoiy targ'ibot – turmush tarzi normalarini, oilaviy qadriyatlarni, ijtimoiy munosabat qoidalarini, ijtimoiy institutlar faoliyatiga doir fakt va argumentlarni, ijtimoiy muammolar tabiati va sabablariga doir qarashlarni jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan jarayondir.*

¹⁴ Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). - "Институт научной и педагогической информации РАО, "ЮРКОМПАНИ", 2012 г.

¹⁵ Qarang: Социальные доказательства в интернет маркетинге: способы применения и типы доказательств.// adbutton.medium.com, 2021, 21 июня.

Tadqiqotda zamonaviy targ'ibot megasistemasidagi siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ham tahlil etilgan. *Siyosiy-mafkuraviy targ'ibot - jamoatchilik fikrini muayyan subyektlarning siyosiy manfaatlariga moslashtirishga xizmat qiladigan axborot, bilim, g'oyani tarqatish jarayonidir.* Boshqa targ'ibot sistemalari kabi uning ham o'z mazmuni va maqsadi, shakllari va uslublari, omillari va vositalari bor, albatta. Shuning bilan bir qatorda faqat ungagina xos xususiyat ham mavjud: targ'ibotning boshqa sistemalaridan farqli ravishda siyosiy-mafkuraviy targ'ibot nafaqat *kishilarning xabardorligi darajasini oshiradi*, balki ularning ongida *voqelikka doir muayyan tasavvurni ham shakllantiradi.* Bundan tashqari, u ayrim voqealarni bo'rttirib ko'rsatar, boshqalarini soyada qoldirar ekan, voqelikning o'ziga xos konstruksiyasini yaratishga, bu konstruksiyani o'zgartirishga bel bog'lagan katta-katta guruhlarini *harakatga keltirishga* qodir ijtimoiy faoliyat turidir.

Zamonaviy targ'ibot megasistemi tarkibidan joy olgan yana bir targ'ibot ko'rinishi *ma'naviy targ'ibotdir.* U targ'ibotning boshqa tiplaridan o'zining maqsad-muddolari bilan ajralib turadi. Shunday qilib, *ma'naviy targ'ibot deganda jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni shakllantirish, ijtimoiy garmoniyani mustahkamlash, kishilarda gumanistik e'tiqodni qaror toptirish, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni shakllantirish, ularni umume'tirof etilgan qadriyatlar atrofida birlashtirish maqsadida muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy, badiiy, estetik va boshqa fikr va g'oyalarni, fakt va argumentlarni tarqatish jarayoni nazarda tutiladi.* Shu nuqtai nazardan fikrlaganda ma'naviy targ'ibotning huquqiy, axloqiy, diniy, falsafiy, ilmiy, badiiy, estetik targ'ibot kabi yo'nalishlari bo'lishi mumkin. Amaliyotga nazar soladigan bo'lsak, bugungi kunda ma'naviy targ'ibotning barcha shakllari, shuningdek, ma'naviyatni yemirishga xizmat qilayotgan targ'ibot shakllari ko'plab *uslublar* asosida amalga oshirilayotganiga amin bo'lamiz.

Dissertant mulahazalariga ko'ra, ma'naviy targ'ibot vaqt o'tgani sayin ham shaklan, ham usluban takomil topib bormoqda. Aftidan, yaqin kelajakda mazkur takomil jarayoni yanada jadallashadigan ko'rinadi. Chunki, ziddiyatlarga to'la dunyoda barcha mamlakatlarda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash masalasi strategik ahamiyat kasb qilmoqda. Bu maqsadga erishish uchun esa juz'an aholi orasida bunyodkorlikka undovchi g'oya va tasavvurlarni kengroq targ'ib va tashviq qilish zarur bo'ladi. Har qanday ko'rinishdagi targ'ibotning mazmuni muayyan bilim va g'oyani jamoatchilikka yetkazish, shuning asosida ma'lum munosabat va xulq-atvorni shakllantirish bilan bog'liq bo'ladi. Bunda iqtisodiy targ'ibot iqtisodiy ahamiyatga molik g'oyani tarqatishda, ijtimoiy targ'ibot turmush tarzi normalari va ijtimoiy munosabat qoidalarini jamoatchilikka yetkazishda, siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ayrim subyektlar siyosiy manfaatlarini ifodalovchi g'oyalarni ommalashtirishda, ma'naviy targ'ibot jamiyatdagi barqarorlik va hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladigan fikr va g'oyalarni yoyishda o'z ifodasini topadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Zamonaviy targ'ibot sistemalari faoliyatining ijtimoiy oqibatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda targ'ibot oqibatida kishilar iqtisodiy tafakkuri va faoliyatida sodir bo'lgan o'zgarishlar, zamonaviy

targ'ibotning kishilar xulq-atvoriga ta'siri, targ'ibot kontekstida shaxs siyosiy qarashlari va pozitsiyasining yangilanishi hamda kishilar fazilatlari hamda qadriyatlari transformatsiyasi masalalari tahlil etilgan.

XXI asrda zamonaviy targ'ibot sistemalari kishilar tafakkuri va ma'naviy dunyosini, xulq-atvori va faoliyatini tubdan o'zgartirdi. Xususan, iqtisodiy targ'ibot ta'sirida bugungi davr kishilarining iqtisodiy faoliyati o'zgargan bo'lsa, ijtimoiy targ'ibot ularning xulq-atvori modellarini transformatsiyaga uchratdi. Siyosiy targ'ibot vositasida jamiyat a'zolarining siyosiy qarashlari va pozitsiyalari yangilangan bo'lsa, ma'naviy targ'ibot kishilarning fazilatlari hamda qadriyatlarida iz qoldirdi. XXI asrda zamonaviy targ'ibotning megasistemaga aylanishi, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy va ma'naviy targ'ibotning shaklan hamda usluban takomil topishi jamiyat a'zolarining ongu-shuuri, xulq-atvori va faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Sirasini aytganda, bugun kishilar ruhiyati va hatti-harakatlarida ko'zga tashlanayotgan o'zgarishlarning mutlaq ko'pchiligi aynan targ'ibotning shiddatli ta'siri mahsulidir. Yangi asrda targ'ibotning jamoatchilik fikriga ta'siri shu qadar jiddiy tus oldiki, endi u faqatgina ma'lumot berish yoki muayyan g'oyalarni targ'ib qilish bilan cheklanmay qoldi. Hozirda targ'ibot nafaqat jamoatchilik ongini shakllantirishga, balki ularning tuyg'ulari va tafakkuriga salmoqli ta'sir ko'rsatishga, hatto ularning hatti-harakatlari va xulq-atvorini ham boshqarishga qodir qurol bo'lib qolmoqda. Ayniqsa bu iqtisodiy targ'ibot ta'sirida kishilar iqtisodiy tafakkuri va faoliyatida sodir bo'lgan o'zgarishlarda yaqqol namoyon bo'ldi.

Tadqiqotchi fikricha, keyingi yillarda zamonaviy iqtisodiyotning o'ziga xos jihatlarga doir bilim va g'oyalarni targ'ib va tashviq qilishda Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" nomli asari hamda "Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston" asarlari alohida ahamiyat kasb qildi va iqtisodiyotning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli har tomonlama ochib berildi¹⁶.

Hozirda iqtisodiy targ'ibotni amalga oshiruvchi yangi subyektlar ham vujudga keldi. Sovet davrida iqtisodiy targ'ibot nuqul davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng bu yumush bilan nafaqat davlat, balki turfa iqtisodiy sub'ektlar ham shug'ullana boshladilar. Lekin davlat o'z iqtisodiy targ'ibotida asosiy e'tiborni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlarini tushuntirishga qaratgan bo'lsa, iqtisodiy subyektlar o'zlari ishlab chiqarayotgan maxsulot yoki xizmatning inson turmushidagi o'rnini ko'rsatishga urg'u berdilar. Iqtisodiy tafakkur o'zgargani bois kishilarning iqtisodiy faoliyati ham o'zgardi. Buni, falsafiy tushunchalar bilan ifodalaganda, tasodifiy oqibat sifatida emas, yuzaga kelishi aniq bo'lgan zaruriy va qonuniy holat sifatida qabul qilmoq darkor.

Dissertatsiyada "iqtisodiy targ'ibot – iqtisodiy tafakkur – iqtisodiy faoliyat" zanjiridagi ijobiy o'zgarishlar umumiy holda quyidagicha izohlangan:

Birinchidan, iqtisodiy targ'ibot sharofati o'laroq iqtisodiy islohotlar haqidagi tasavvurlarning kengayishi iqtisodiy islohotlarda faol ishtirok etuvchilar sonini ko'paytirdi.

¹⁶ Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

Ikkinchidan, iqtisodiy targ'ibot sharofati o'laroq innovatsiyalar to'g'risidagi tushunchalarning paydo bo'lishi mehnat jamoalarida mehnatga ijodiy yondashayotgan kishilar toifasini yuzaga keltirdi.

Uchinchidan, iqtisodiy targ'ibot sharofati o'laroq aholining turli tabaqalari o'rtasida tadbirkorlikka qiziqishning yuzaga kelishi mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchilar sonini keskin oshirdi.

To'rtinchidan, iqtisodiy targ'ibot sharofati o'laroq moliyaviy savodxonlikning oshishi jamiyatda o'z xarajatlarini rejalashtiradigan, ularga oqilona munosabatda bo'ladigan kishilarni ko'paytirdi.

Beshinchidan, iqtisodiy targ'ibot sharofati o'laroq iste'mol madaniyatining yuksalishi keng ma'lumotga ega iste'molchilarni shakllantirdi.

Ayni paytda turli subyektlar tomonidan amalga oshirilayotgan faol iqtisodiy targ'ibot qator muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'layotganiga ham ko'z yumib bo'lmaydi. Chunonchi, iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatlarining faol targ'ibot qilinishi aholining ma'lum qismida yangilanishlarning tezgina va og'riqsiz sodir bo'lishiga doir irratsional kutilmalarni shakllantirmoqda. Kishilarning muayyan toifasi iqtisodiy islohotlarning ijobiy natijalaridan voqif bo'larkanlar, barcha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ham bir zumda va zudlik bilan hal qilsa bo'ladi, degan xulosaga kelmoqdalar. Ko'plab iqtisodiy subyektlar tomonidan turfa reklamalar vositasida amalga oshirilayotgan targ'ibot ayrim maxsulotlarga sun'iy talabni yuzaga keltirmoqda. Ba'zi moliyaviy tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy targ'ibot osongina daromad topish mumkinligi to'g'risidagi yolg'onlarni ommalashtirib yubormoqda. Ayrim hollarda iqtisodiy targ'ibot tor doiralar va juz'iy iqtisodiy subyektlar manfaatlarini yoqlashga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy targ'ibot natijasida g'ayriilmiy iqtisodiy g'oyalar va qarashlar ham ommalashib ketmoqda.

Zamonaviy jamiyatda konstruktiv iqtisodiy targ'ibot keng jamoatchilikning iqtisodiy tafakkurini yuksaltirgan, iqtisodiy faoliyatini maqbullashtirgan bo'lsa, destruktiv iqtisodiy targ'ibot iqtisodiyotga doir noto'g'ri tasavvurlar va qarashlarning yuzaga kelishiga, pragmatik xarakterga ega bo'lmagan iqtisodiy faoliyat turlarining paydo bo'lishiga yo'l ochdi. Iqtisodiy targ'ibot kishilar iqtisodiy tafakkuri va faoliyatiga ta'sir ko'rsatgani kabi ijtimoiy targ'ibot ularning turmushi va o'zaro munosabatlarga mutlaqo o'zgacha tus berdi.

Tadqiqotchi fikricha, inson turmush tarzini, uning o'zgalar bilan munosabatlari mazmuninini shakllantiruvchi omillar orasida ijtimoiy targ'ibot alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, hayot tarzi me'yorlari va shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy targ'ib qilinish birinchi navbatda jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishning muhim vositasidir. Uning davomida ilgari surilgan takliflar va tashabbuslar fuqarolarga o'zaro yordam, oqibatlilik, hamkorlik va hamjihatlikning naqadar muhimligini anglash imkonini beradi.

Ijtimoiy targ'ibot imkoniyatlarining sog'lom turmush tarzini targ'ib va tashviq qilishga yo'naltirilishi katta ijtimoiy natijalarga olib keldi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy targ'ibot pragmatik va o'zaro hurmatga asoslangan shaxslararo munosabat normalarini targ'ib va tashviq qilishga moslashtirildi. Bu jamiyatning turli jabhalarida - ta'lim dasturlaridan tortib, madaniy tashabbuslarga qadar yaqqol

namoyon bo'ldi. Jumladan, ta'lim maskanlarida yoshlarga nafaqat ilm berishga, balki muomala va muloqot malakasini shakllantirishga ham urg'u berildi. Mamlakat bo'ylab o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning asosiy mavzularidan biri hamjihatlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lib qoldi¹⁷. Ijtimoiy targ'ibot imkoniyatlarining pragmatik va o'zaro hurmatga asoslangan shaxslararo munosabat normalarini targ'ib va tashviq qilishga moslashtirilishi ham katta ijtimoiy natijalarga olib keldi. Ayniqsa, birinchidan, jamiyatning ijtimoiy kapitali yuksaldi. Ikkinchidan, fuqarolar hayoti sifatida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. Uchinchidan, mamlakatda fuqarolik jamiyatining shakllanishi jadallashdi. To'rtinchidan, milliy ong rivoj topdi. Ijtimoiy targ'ibot milliy g'urning o'sishiga, milliy madaniyatdan xabardorlik darajasining yuksalishiga yo'l ochdi.

Dissertatsiyada ijtimoiy targ'ibot sohasidagi barcha zamonaviy jarayonlar va tendensiyalar progressiv xarakterga ega sifatida baholangan. Bu o'rinda ikki holat yaqqol ko'zga tashlanmoqda. *Bir tomondan*, aslida yaxshi niyatlar bilan, ya'ni keng jamoatchilikka sog'lom turmush tarzi normalarini, o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan munosabat tamoyillarini singdirishni maqsad qilgan ijtimoiy targ'ibotning o'zi ayrim muammolarni yuzaga keltirmoqda. Birinchidan, sog'lom turmush tarzining faol targ'ib qilinishi ayrim fuqarolarda yuqori standartlarga moslashishga qaratilgan nooqilona hatti-harakatlarni vujudga keltirmoqda. Ikkinchidan, hamjihatlik va o'zaro hurmat tuyg'ularining faol targ'ib va tashviq qilinishi kishilarning jiddiy ijtimoiy xatarlarga sabab bo'lmaydigan oddiy nuqsonlarini ham keskin tanqid ostiga olish kayfiyatini shakllantirmoqda.

Ikkinchi tomondan, konstruktiv ijtimoiy targ'ibotga muxolif tarzda destruktiv ijtimoiy targ'ibot ham avj olib bormoqda. Bunday xarakterdagi targ'ibot ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Chunonchi, birinchidan, ayrim mas'uliyatsiz subyektlar tomonidan nosog'lom turmush tarzi normalarining keng targ'ib qilinishi noto'g'ri ovqatlanish hollari, salomatlik normalariga e'tiborsizlik avj olishiga sabab bo'lmoqda. Ikkinchidan, turli vositalar yordamida individualizm tamoyillariga asoslangan shaxslararo munosabatlarning targ'ib qilinishi ijtimoiy hamjihatlikka jiddiy tahdid solmoqda. Uchinchidan, ayrim ommaviy axborot vositalarida, san'at asarlarida nenormativ xulq-atvor modellarining namoyish etilishi shaxslararo munosabatlarga doir noto'g'ri tasavvurlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Dissertant fikricha, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy targ'ibot sog'lom turmush tarzi normalarining hamda o'zaro hurmat tuyg'ulariga asoslangan shaxslararo munosabatlarning ommalashuviga sabab bo'ldi. Biroq uning destruktiv shakllari ayrim fuqarolarda nosog'lom turmush tarzi tamoyillarining, nenormativ xulq-atvor modellarining qaror topishiga olib keldi. Siyosiy maqsad-muddaolarning o'zgarishi mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy-mafkuraviy targ'ibot xarakterini tubdan yangiladi.

Milliy manfaatlariga mos bo'lgan siyosiy maqsad-muddaolar va g'oyalarning keng targ'ib qilinishi kishilar siyosiy qarashlariga salmoqli ta'sir ko'rsatdi.

¹⁷ Jalilov B.N. Sog'lom turmush tarzi va uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2023, №3.-276-282-b

Jumladan, birinchidan, yangi xarakterdagi siyosiy-mafkuraviy targ'ibot kishilar ongi va ruhiyatini kommunistik g'oyalar ta'siridan xalos qildi. Ikkinchidan, siyosiy-mafkuraviy targ'ibot odamlarda vatanparvarlik, milliy g'urur tuyg'ularining kuchayishiga olib keldi. Odamlarning milliy o'ziga xoslik haqidagi tasavvurlari kengaydi, buning natijasida fuqarolarda umumiy qadriyatlarni himoya qilish istagi kuchaydi. Bu holat mamlakat tarixi va madaniyatiga tayangan yangi ijtimoiy-siyosiy harakatlarning vujudga kelishi uchun asos bo'ldi. Uchinchidan, kishilarning mamlakat tarixiy siyosiy tajribalari, institutlari, an'analari haqidagi tasavvurlari rivoj topdi. Bu tasavvurlar sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar va ularning kishilar turmushiga ta'sirini chuqurroq anglash imkonini yaratdi. Natijada jamiyatda yangi siyosiy bilim va g'oyalarni o'zlashtirishga moyillik vujudga keldi. To'rtinchidan, targ'ibot sharofati bilan kishilarning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning asl maqsadlari, unga erishish strategiyasi haqidagi tasavvurlari kengaydi. Beshinchidan, targ'ibot odamlarning milliy xavfsizlikka tahdidlar haqidagi tushunchalarini kengaytirdi.

O'zbekistonda milliy manfaatlarga mos bo'lgan siyosiy bilimlar va g'oyalar targ'iboti tizimli tus olib borayotgan bir sharoitda jahonning turli siyosiy va mafkuraviy markazlar tomonidan amalga oshirilayotgan destruktiv siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ham kuchaymoqdaki, u ham ayrim jamiyat a'zolari siyosiy qarashlari va pozitsiyasi xarakterida iz qoldirmoqda. Xususan, destruktiv siyosiy-mafkuraviy targ'ibot oqibatida siyosiy e'tiqodi degradatsiyaga yo'liqqan, siyosiy tafakkuri stagnatsiyaga yo'liqqan kishilar toifasi paydo bo'ldi. Destruktiv siyosiy-mafkuraviy targ'ibot natijasida milliy manfaatlardan yiroq normalarni o'z siyosiy pozitsiyasi asosiga aylantirgan hamda ularni hayotga tatbiq etishga moyil bo'lgan shuningdek, befarq kishilar toifasi paydo bo'ldi.

Dissertatsiyada mamlakatda paydo bo'lgan siyosiy e'tiqodi degradatsiyaga yo'liqqan, siyosiy tafakkuri stagnatsiyaga uchragan, milliy manfaatlardan yiroq normalarni o'z siyosiy pozitsiyasi asosiga aylantirgan kishilar soni o'zining kritik nuqtasiga yetmagani asoslangan. Lekin yurt siyosiy-mafkuraviy xavfsizligini ta'minlashdek muhim strategik vazifa ana shu kamchilikning yuzaga kelganiga ham jiddiy e'tibor berishni, ularni milliy manfaatlarni qondirish yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan jamoatchilik safiga qaytarish choralari ko'rishni taqozo qilishi qayd qilingan.

Zamonaviy targ'ibotning yana bir ko'rinishi – *ma'naviy targ'ibot* barcha davrlarda kishilarning turfa fazilatlarini va qadriyatlarini dunyosiga salmoqli ta'sir o'tkazib kelgan. Har bir davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum muayyan tipdagi inson shaxsini shakllantirishni taqozo qilgan. Ma'naviy targ'ibot esa unga taqdim qilingan ana shu tipga xos bo'lgan fazilat va qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qilgan. Shu boisdan bir davrda insonning bir turdagi fazilat va qadriyatlarini, boshqa davrda ularning boshqa turlarini kamol toptirish ma'naviy targ'ibot subyektlarining diqqat markazida turgan. Boz ustiga, ma'naviy targ'ibot turli davrlarda targ'ib qilinayotgan fazilatlar va qadriyatlarni turli mazmun bilan to'ldirib kelgan. Aytish joizki, mustaqillik yillarida shakllangan o'ziga xos institutsional tuzilma vositasida amalga oshirilgan ma'naviy targ'ibot jiddiy yutuqlarga erishdi.

Dissertatsiyada ijtimoiy ahamiyatga molik gumanistik fazilatlarning keng targ'ib qilinishi kishilardagi ko'plab fazilatlar mazmunini o'zgartirishi ta'kidlangan. *Chunonchi*, birinchidan, shaxs aqliy fazilatlari mazmuni o'zgardi. *Ikkinchidan*, shaxs axloqiy fazilatlari mazmuni o'zgardi. *Uchinchidan*, shaxs huquqiy fazilatlari mazmuni o'zgardi. *To'rtinchidan*, shaxs mehnat fazilatlari mazmuni o'zgardi. Ko'rinib turibdiki, mustaqillik yillarida qaror topgan ma'naviy targ'ibotning yangi institutsional tuzilmasi, uning muvaffaqiyatli faoliyati shaxs fazilatlari va qadriyatlari dunyosida jiddiy va ijtimoiy ahamiyatga molik o'zgarishlarni keltirib chiqardi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ma'naviy targ'ibot bilan bog'liq ayrim muammolarning saqlanib qolayotgani nafaqat targ'ibot imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishga xalal bermoqda, balki shaxs ijtimoiy fazilatlari hamda qadriyatlari dunyosining shakllanishi jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, *birinchidan*, ko'plab ma'naviyat targ'ibotchilari saviyasining bugungi kun talablariga javob bermasligi fazilatlar va qadriyatlar ijtimoiy ahamiyatiga e'tiborsiz kishilarning yuzaga keltirdi. *Ikkinchidan*, ma'naviy targ'ibotning tabaqalashtirilmagani ijtimoiy fazilatlar hamda qadriyatlarning ahamiyatiga doir mulohazalarni tushunmaydigan kishilar toifasini yuzaga keltirdi. *Uchinchidan*, ma'naviy targ'ibotda bir xil mavzularning muttasil takrorlanishi fazilatlari va qadriyatlarining shakllanishi jarayoni sekinlashgan kishilar toifasini paydo qildi. *To'rtinchidan*, ma'naviy targ'ibotning uzluksizligi ijtimoiy fazilatlari va qadriyatlari dunyosi shakllanishdan to'xtagan kishilarni paydo qilmoqda.

XXI asrda zamonaviy targ'ibot sistemalarining o'ta murakkablashishi va takomil topishi ularning kishilar ongi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini benihoyat kengaytirdi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-mafkuraviy va ma'naviy targ'ibotning ijtimoiy oqibatlarini beryoqlama baholab bo'lmaydi. Chunki u kishilar ma'naviy olamiga bir tomondan - ijobiy, ikkinchi tomondan esa – salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ijobiy ta'sir shunda ko'rinadiki, iqtisodiy targ'ibot ta'sirida kishilar iqtisodiy tafakkuri va faoliyatida, ijtimoiy targ'ibot ta'sirida jamiyat a'zolari turmush tarzi va o'zaro munosabatlarida, siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ta'sirida fuqarolar siyosiy qarashlari va pozitsiyasida, ma'naviy targ'ibot ta'sirida odamlar fazilatlari va qadriyatlari dunyosida progressiv o'zgarishlar sodir bo'ldi. Salbiy ta'sir shunda ko'rinadiki, destruktiv iqtisodiy targ'ibot ta'sirida kishilarda irratsional iqtisodiy kutilmalar, tasavvurlar, talablar shakllanmoqda, destruktiv ijtimoiy targ'ibot ta'sirida jamiyat a'zolari turmushida nosog'lom normalar, individualizmga asoslangan shaxslararo munosabat tamoyillari paydo bo'lmoqda, destruktiv siyosiy-mafkuraviy targ'ibot ta'sirida siyosiy e'tiqodi degradatsiyaga yoki stagnatsiyaga yo'liqqan, siyosiy pozitsiyasi umummilliy manfaatlardan yiroq fuqarolar paydo bo'lmoqda, ma'naviy targ'ibot sistemasida saqlanib qolayotgan muammolar ta'sirida fazilatlari va qadriyatlarining shakllanishi sekinlashgan yoxud to'xtagan kishilar yuzaga kelmoqda.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat a'zolarini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofazalash zaruriyati va imkoniyatlari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida destruktiv targ'ibotning oldini olishda tanqidiy tafakkurni shakllantirish ahamiyati, jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy

tarmoqlardan foydalanish yo'llari va milliy-ma'naviy targ'ibot sistemasini takomillashtirish zaruriyati asoslab berilgan.

Tadqiqotda zamonaviy targ'ibot sistemalari takomil topib borayotgan bir sharoitda destruktiv targ'ibot shakllari va vositalari ham murakkablashayotgani qayd qilingan. Bu holat jamiyat a'zolarini uning salbiy ta'siridan muhofazalash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Shuningdek, kishilar ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan himoya qilish uchun uch asosiy vazifani hal qilish zarurligi isbotlangan:

a) jamiyat ma'rifiy imkoniyatlariga tayangan holda kishilarda tanqidiy tafakkurni yuksaltirish zarur;

b) ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini yanada sog'lomlashtirish kerak;

v) milliy ma'naviy targ'ibot sistemasini takomillashtirish lozim.

Zamonaviy targ'ibot sistemalari nafaqat konstruktiv targ'ibot konfiguratsiyalari va modellaridan, balki ularning destruktiv ko'rinishlaridan ham tarkib topadi. Ahamiyatli jihati shundaki, zamonaviy jamiyat sharoitida konstruktiv targ'ibot naqadar takomil topayotgan bo'lsa, destruktiv targ'ibot ham shu qadar murakkab tus olib bormoqda. Shu munosabat bilan jamiyat a'zolarini konstruktiv targ'ibot ta'siri ostida saqlab turish, ayni paytda ularning ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bu maqsad yo'lida bajarilishi zarur bo'lgan *birinchi vazifa* – jamiyat ma'rifiy imkoniyatlariga tayangan holda kishilarda tanqidiy tafakkurni yuksaltirish bilan bog'liq.

Tadqiqotchi fikricha, *tanqidiy tafakkur* deganda shaxsning turli ma'lumotlarni tahlil qilish, dalil va faktlarni baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyati tushuniladi. Darhaqiqat, destruktiv targ'ibotning oldini olishda tanqidiy tafakkurning roli nihoyatda katta. Chunki, *birinchidan*, tanqidiy tafakkur faktchekingni shakllantirish uchun real imkoniyatlar yaratadi. Faktcheking deganda shaxsning ma'lumotlarni uzatayotgan manba ishonchliligini aniqlash qobiliyati tushuniladi¹⁸. Mazkur qobiliyat mantiqsizlikni aniqlash, ma'lumotni isbotlash uchun keltirilgan dalillardagi nomuvofiqliklarni ilg'ash, bayonotlarni shubha ostiga olish, shuning asosida ma'lumotni tarqatayotgan manbaning ishonchliligi darajasini baholash ko'nikmalaridan tarkib topadi. *Ikkinchidan*, tanqidiy tafakkur targ'ib etilayotgan g'oyaning o'zini ham tanqidiy tahlil qiblishga odatlantiradi. *Uchinchidan*, tanqidiy tafakkur targ'ibot davomida qo'llanilgan manipulyativ texnologiyalarni aniqlash imkonini beradi. *To'rtinchidan*, tanqidiy tafakkur noxolis targ'ibotchilar qo'llaydigan kognitiv xatolarni ilg'ab olishda qo'l keladi. Kognitiv xatolar deganda mulohaza jarayonida kishilarni chalg'itish uchun atayin qilingan xatolar nazarda tutiladi. Biroq jamiyat a'zolarining tanqidiy tafakkuri stixiyali ravishda va tasodifiy tadbirlar sharofati bilan qaror topib qolmaydi, albatta. Buning uchun jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ma'rifiy imkoniyatlar shu maqsad sari safarbar qilinmog'i, ulardan oqilona foydalanilmog'i

¹⁸ Корнев М.С. Фактчекинг: от термина и понятия к словоупотреблению. // Вестник РГТУ. Серия: Литературоведение. Языкознание. Культурология, 2020, - №6. – С.72.

darkor. Faqat shu yo'l bilangina kishilarning ongu-shuurini destruktiv targ'ibot ta'siridan samarali muhofaza qilish mumkin bo'ladi.

Dissertatsiyada bu borada quyidagi vazifalar kun tartibiga qo'yilishi maqsadga muvofiq deb hisoblangan:

1. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularni tarqatilayotgan g'oya, fikr, ma'lumotni tahlil qilishga o'rgatish lozim.

2. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda dalil keltirish va rad qilish ko'nikmalarini shakllantirish kerak.

3. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda munozaralarda qatnashish malakasini rivojlantirish kerak.

4. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularni mantiqiy tafakkurning asosiy tamoyillaridan voqif qilish lozim.

5. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda ilmiy skeptitsizmni rag'batlantirish kerak.

6. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda ijodiy tafakkurni shakllantirish zarur bo'ladi. Tanqidiy va ijodiy tafakkur bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Tanqidiy tafakkur – bu ma'lumot va g'oyalarni tahlil qilish, ularni mantiqiy dalillar asosida baholash ko'nikmasi bo'lsa, ijodiy tafakkur – bu yangi, noodatiy yondashuvlarni topish va mavjud tushunchalarni qayta tahlil qilish qobiliyatidir¹⁹.

7. Kishilarda tanqidiy tafakkurni shakllantirish uchun ularda mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalariga ham e'tiborni qaratish lozim bo'ladi.

Dissertatsiyada jamiyat a'zolarini konstruktiv targ'ibot ta'siri ostida saqlab turish, ayni paytda ularning ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi *ikkinchi vazifa* – ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Darhaqiqat, sog'lom jamoatchilik fikrini yuzaga keltirmasdan turib, kishilarni g'ayriinsoniy, g'ayriijtimoiy g'oyalar va ma'lumotlardan himoya qilishga qodir muhitni yuzaga keltirib bo'lmaydi. Ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarning ma'rifiy-tarbiyaviy imkoniyatlari esa bunda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Jamoatchilik fikri "ijtimoiy hayot ta'sirida stixiyali shakllanib borishi yoki siyosiy tashkilotlar va mafkuraviy muassasalarning omma ongiga ta'sir ko'rsatishi natijasida maqsadga muvofiq o'zgarib borishi mumkin"²⁰. Bunda quyidagi omillar va tizimlar hal qiluvchi ahamiyat kasb qiladi:

1. Ommaviy axborot vositalari.
2. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar.
3. Maorif va bilim darajasi.
4. Ijtimoiy muhit va an'analar.

¹⁹ Чернецкая Н.И. Творческое мышление как Высшая форма мышления. // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология, 2009, - №2. – С.225-230.

²⁰ Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Ж.2.- Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр., 2019. - Б.374.

Shunday qilib, jamoatchilik fikri jamiyatdagi muhim jarayonlarni yo'naltirishda asosiy mexanizm bo'lib, uning shakllanishi ko'plab omillar ta'sirida sodir bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlardan jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish yo'lida oqilona va tizimli foydalanilsa, kishilar ongi va faoliyatini destruktiv targ'ibot ta'siridan muhofaza qilish uchun real shart-sharoit yaratilgan bo'lardi.

Dissertatsiyada bu borada qator *tavsiyalarga* e'tibor berish maqsadga muvofiq deb hisoblangan:

1. Xolis va haqqoniy axborot tarqatish ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi kontent yaratish jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirishda muhim omillardan biridir.

3. Ma'lumot manbalarining ishonchliligini oshirish ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak.

4. Ma'lumot manipulyasiyasi va yolg'on axborot tarqalishining oldini olish maqsadida media savodxonlikni oshirishga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish juda muhim.

5. Xorijiy mamlakatlarning ommaviy axborot imkoniyatlariga tayangan holda jamoatchilik fikrini sog'lomlashtirish borasidagi tajribalarini o'zlashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda mamlakatimiz aholisi ongi va faoliyatini destruktiv zamonaviy targ'ibot ta'siridan muhofazalash borasidagi *uchinchi vazifa* – milliy ma'naviy targ'ibot sistemasini takomillashtirish bilan bog'liqligi asoslangan. Davrning o'zi uni mazmunan va institutsional darajada yuksaltirishni taqozo qilmoqda.

Milliy ma'naviy targ'ibot sistemasini takomillashtirish uchun uni nafaqat ma'naviy-ma'rifiy ishlar doirasida ravnaq toptirish, balki uning yuksalishiga zamin hozirlaydigan alohida va maxsus choralarni ham ko'rish kerak bo'ladi. Jumladan, davr talablari ma'naviy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarini tayyorlash va tanlash sistemasini takomillashtirishi taqozo qilmoqda. Ma'naviy targ'ibotni tashkil qilish salohiyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy targ'ibot ishlarini takomil toptirish uchun ularni rejalashtirish amaliyotini tubdan o'zgartirish lozim bo'ladi. Ma'naviy targ'ibot ishlarining rejalashtirilishi targ'ibot materiallari mazmunini boyitishga, targ'ibot jarayonining izchilligi, sistemaliligi, kompleksliligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ma'naviy targ'ibot vositalaridan foydalanishda mutanosiblikka erishish masalasi ham dozarbligicha qolmoqda. Ma'naviy targ'ibot ishlarini takomillashtirish uchun uzluksizligini ta'minlash kerak bo'ladi. Davr talablari ma'naviy targ'ibot ishlarini tabaqalashtirgan holda amalga oshirishni taqozo qilayotir. Ma'naviy targ'ibot sistemasini takomil toptirish uchun uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash masalalari doimiy diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikri – bu shunchaki axborot oqimlariga nisbatan passiv munosabat emas, balki faol ongli, axloqiy-ijtimoiy pozitsiyaning ijtimoiy ifodasidir. Ijtimoiy tarmoqlar – bu

zamonaviy shaxsning ma'naviy-ruhiy makonini aks ettiruvchi oynadir, u orqali inson jamiyatdagi o'rnini anglaydi, muammolarni ko'radi va unga munosabat bildiradi. Shu sababli, ijtimoiy fikrni sog'lomlashtirish uchun mazmunan sof, ijtimoiy manfaatga xizmat qiladigan kommunikatsion targ'ibot platformalar zarur. Ma'naviy turg'unlik va befarqlik sharoitida ommaviy axborot vositalarining roli faqat yangilik yetkazishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy farosat, madaniy ong va fuqarolik pozitsiyasini tarbiyalash vositasiga aylanmoqda. Ijtimoiy ongni sog'lomlashtirishga qaratilgan kontentlar – bu jamiyatda adolat, vijdon, bag'rikenglik, mas'uliyat kabi umuminsoniy fazilatlarini mustahkamlashga xizmat qiladigan gumanistik targ'ibot shaklidir. Fikriy ifoda erkinligi bilan birga ijtimoiy mas'uliyat tamoyili uyg'unlashgandagina jamoatchilik fikri sog'lom, taraqqiyotga yo'naltirilgan, adolatli bo'lishi mumkin.

Milliy ma'naviy targ'ibot tizimini takomillashtirish, uning institutsional, ma'rifiy va media komponentlarini rivojlantirish davr talabidir. Bu avvalo ta'lim, media, san'at, internet, oila va diniy muassasalar faoliyatini ma'naviy maqsadlar doirasida uyg'unlashtirishdir. Bu tizimli yondashuv o'zida "axborot + ta'sir + qadriyat + mas'uliyat" asosida qurilishi lozim.

XULOSA

Zamonaviy jamiyatda targ'ibot iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarga ta'sir etuvchi muhim mexanizmga aylandi. Raqamli texnologiyalar va internet vositalari orqali axborot tarqatish, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va blogosfera yordamida jamoatchilik fikriga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarining kengayib borayotgani esa uning qudratini yanada oshirmoqda. Bunday vaziyatda zamonaviy targ'ibot sistemalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini chuqurroq o'rganish, shu asosda davlat va nodavlat tashkilotlari uchun samarali targ'ibot strategiyalarini ishlab chiqish masalasi dolzarb ahamiyat kasb qilmoqda. Shu maqsadda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

